

Ommaviy axborot vositalari tilida uslubiy vositalarning o'rne
SamDChTI o'qituvchisi O'. Qo'ldoshev
Annotatsiya

Ushbu maqola ommaviy axborot vositalari tilida uslubiy vositalarning tutgan o'rihaqida mulohaza yuritadi. Informatsion ma'lumotlar va gazeta maqolalarida ishlatilgan uslubiy vositalarning tahlili yuzasidan fikr yuritadi.

Annotation

This article is about importance of using stylistic devices in the language of mass media materials. Functions of stylistic devices which were used in the newspaper articles are analysed.

Mustaqil vatanimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishida, globallashuv jarayonida zamon bilan hamnafas yashashni istar ekanmiz hamda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari odimlar ekanmiz chet tilini yosh avlodga o'rgatish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatimizda fan va texnika, ijtimoiy, siyosiy va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, eski uslublardan voz kechib, yangi-yangilarini yaratish va dars jarayonida ularni qo'llash, o'qituvchilar zimmasiga kattadan katta ma'suliyatlar yuklamoqda.

Ushbu zaruriyatlardan kelib chiqib talabalarni tarjima amaliyotiga o'rgatishda gazeta va internet materiallaridan keng foydalanish, ularga xos til xususiyatlarini tushuntirish, qiziqarli matnlar bilan tanishish va ishlay bilishni o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi degan fikrdamiz. Shunday ekan, xorijiy tilni o'rganayotgan talabalar o'sha tildagi matbuot materiallari yoritgan voqealarni tushuna olish va talqin eta olishi shart. Shu o'rinda talabalarga xorij gazetasi va chet tilidagi internet information materiallarini asosiy uslublarini singdirish biz pedagoglarning burchidir. Ushbu maqolada shu jarayonning ba'zi xususiyatlarini yoritishga urinamiz.

Chet tilida yozilgan gazeta maqolalarini o'qib tushunish jarayonini osonlashtirish uchun birinchi navbatda asliyat matnlarida yuzaga keladigan leksik-grammatik hamda stilistik qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan boshlash lozim.

Gazeta matnida muayyan matnni to'g'ri tushunishga muayyan mamlakatdagi siyosiy ahvoldan yoki millatga xos bo'lgan so'zlar (realiya) hamda uslubiy vositalarning qo'llanishidan bexabarlik matnni tushunishga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu holda o'qituvchi izohlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot beruvchi vositalarning til uslubi boshqa badiiy va ilmiy adabiyotga xos bo'lgan til uslublaridan tubdab farq qilsada, ularning birlamchi – xabar yetkazuvchi vazifasidan tashqari ta'sir o'tkazuvchi vazifasi ham ularning til uslubi, publitsistik uslubning alohida bir ko'rinishiga aylanib bo'lgan.

Shu asnoda e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan jihat - bu ingliz gazetalarining tili qisqa, lo'nda va soda gaplar bilan yozilishiga qaramasdan uslubiy vositalarning keng qo'llanilishi hozirgi ingliz gazetalarida uslubida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, gazeta chop etilishining maxsus shartlari, ya'ni vaqt tig'izligi, chop etilayotgan materiallarga uslubiy ishlov berish imkoniyatining yo'qligi, tematika takrorlanishi va mavzularning takrorlanishi xilma-xilligi chegaralanganligi, publitsistik uslubning soddalashtirilishiga, standartlashtirilishiga va ma'lum leksik pasayish hollariga olib keladi. Standart mavjudligi esa ommaviy axborot vositalariga xos qolip so'zlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shu sababli ingliz gazetalarida quyidagi qolib birikmalar ko'p uchraydi:

The article, The editorial, The issue ...	is devoted to ..., is dedicated to ..., deals with ..., describes ..., opens with description of ..., gives the description of ..., contains the description of ..., points out that ..., is concerned with ..., dwells the readers attention to ..., comments on ..., discusses the events ..., reviews the events ..., stresses....
The talks were conducted in the atmosphere of The negotiations were held In the spirit of	mutual understanding. mutual respect frankness, friendship.

Buyuk Britaniya va AQSh matbuoti rivojlanishining asosiy sababi ularning spetsifikasiga qarab, qiyinchilik tug'diradigan sarlavhalarning yorqin stilistik belgilarga ega ekanligidadir. Anglo-Amerika gazetalarida sarlavha belgilovchi ro'lni o'ynaydi. Uning asosiy vazifasi gazetonning e'tiborini jalb etish, uni hayratda qoldirish va ikkilamchi vazifasi esa ma'lumotni gazetonga yetkazishdir. Shu maqsadda ular gazeta sarlavhalari va hatto matnning o'zida ham uslubiy vositalardan keng foydalanadi. Bunday yo'nalishda ish olib borish natijasida Anglo-Amerika matbuotida o'zining o'ta ta'sirchan leksik va grammatik vositalari bilan xarakterlanadigan gazeta sarlavhalarning uslubi ishlab chiqarilgan¹. Odatda sarlavhalar telegraf tili shaklida yoziladi, ya'ni maksimal darajada sig'imi kichraytirilgan va ikkinchi darajali semantik unsurlar tushirib qoldirilgan o'ta lakonik frazalardan tashkil topgan bo'ladi. Misol uchun ingliz gazetalarida, ba'zi bir siyosiy arboblardan, san'atkorlar va sportchilar familiyalari o'rniga hamma uchun tanish bo'lgan ularning qisqartirilgan nomlari yoki laqablari ishlatiladi: *Winnie = Winston Churchill. Arni = Arnold Schwartsnegr*.

Emotsional bo'yoq berish uchun neologizmlar, dialektizmlar, poetizmlar va slenglardan keng foydalaniladi: Masalan: *Cop – in place of Policeman. Koplar politsiya nozirlari*.

Obrazlilik unsurlari ishlatilishi mumkin: Masalan: *Bush Rises his Eyebrows. Bush lolu-hayron. American President on Fire. Amerika prezidenti tashvishda*.

Shaxsi noma'lum gaplarning ishlatilishi sarlavhani ko'zga tashlanadigan qilish uchun ishlatilib, yordamchi so'zlar va hatto, ba'zan mustaqil so'zlarni tashlab ketish orqali erishiladi. Qisqa va g'alati shaklga ega sarlavha gazetonlar diqqatini o'ziga tortib, ularda qiziqish uyg'otadi.

Zikr etilgandek Anglo- Amerika gazeta sarlavhalarini tarjima qilishda o'ziga xos yondashuvni talab qilar ekan. Elliptik konstruksiyalarning odatiy ishlatilishi sarlavhalarning sig'imining va dinamikasini yaratib beradi. Agar sarlavhada obrazlilik mavjud bo'lsa, u holda matnni tarjima qilish oldidan uni o'qib chiqish va uning matndagi ma'nosini aniqlash darkor. Shundan so'nggina biz sarlavhada obrazlilik unsurlarini tarjimada saqlab qolishga harakat qilamiz. Ko'p hollarda sarlavhaning qiziqarliligini oshirishga qaratilgan unsurlar mavjudki, sarlavha o'zining axborot vazifasini yo'qotadi va xabarda mavjud ma'nosini bermaydigan darajada bo'lib qoladi. Bunday hollarda sarlavhadagi so'zlar sonini uning matndan ma'no beruvchi so'zlarni olib sarlavhaga qo'shish lozimdir.

Quyida turli xil gazetalardan olingan sarlavhalarga e'tiborni qaratib, ularda ishlatilgan uslubiy vositalarni tahlil qilsak. Ularda ingliz tili uslubshunosligida mavjud "colloquialism", "pun", yoki "alliteration" kabi uslubiy vositalarning ishlatilganligiga guhov bo'lamiz. Misol uchun quyida berilgan «MCENROE IN STORM OVER VENUE SWITCH» sarlavhada McEnroe ismli kishi yomg'ir yoki shamol bo'ronida qolmagan, balki bu sarlavhada "storm" so'zi "colloquialism" bo'lib kelgan va "quarrel-janjal" yoki "row - " ma'nolarida ishlatilganligiga maqolani o'qib chiqib guvohi bo'lamiz. .

«CRASH CROOKS THANK HERO COP» nomli sarlavhada esa alliteratsiya (alliteration), bir xil harflar bilan boshlanadigan so'zlar tizimi ishlatilgan, ya'ni bu sarlavhada "c" harfi bir necha so'zga takrorlanib kelib alliteratsiyani hosil qilmoqda. Bu esa sarlavhani e'tiborni tortadigan holga keltirgan hamda ma'lumotni qisqa va lo'nda uslubda ifodalashga xizmat qilgan. Alliteratsiya usuli ingliz tilida bir necha yuz yillardan buyon ishlatilib kelimoqda, chunki unda juda kuchli ritm mavjud.

«MILKIE WAY TO MARRY» sarlavhasida so'z o'yinidan yoki bo'lmasa ingliz tili stilistikasida uchraydigan "Pun" deb nomlanuvchi uslubiy vosita qo'llanilgan. Biz bilamizki ingliz tilida "Milky way" tushunchasi ba'zan biz osmonda ko'rib turadigan bir guruh yulduzlar turkumini ifodalaydi. Lekin ushbu sarlavhada "Milkie" so'zi "milkman" so'zining qisqartmasi shaklida, "way"

¹ Малявин Д.В. Латушкина М.С. «Работа с газетой на английском языке в средней школе» М. «Просвещение» 1988 г. ст.42.

so'zi esa "manner-usul, uslub" ma'nosida ishlatilgan. Ushbu "And what about Watt?" nomli va shunga o'xshash sarlavhalarni ko'plab keltirishimiz mumkinki ingliz axborot matnlarida uslubiy vositalar ayniqsa "pun" uslubiy vositasining qo'llanishi ham juda tez-tez kuzatiladigan holat.

"THATCHER, PENSION-SNATCHER" nomli ritmik satirik sarlavha "Tetcher – nafaqa talonchisi" tarzida tarjima qilinib, unda Toriylar hukumatining nafaqa miqdorining kamiyligiga olib keluvchi o'zgartirishlar haqida gap bormoqda.

Ingliz va amerika ommaviy axborot vositalari tilida emotsional bo'yoqdorlik turli xil uslubiy vositalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi, ayniqsa metafora va epitelar: *international climate, a spectacular sight, an outrageous act, brutal rule, an astounding statement, crazy policies*.

Ananaviy perifrazalardan foydalanish ham odat tusiga kirgan: *Wall Street* (American financial circles), *Downing Street* (the British Government), *Fleet Street* (the London press), *the Great Powers* (the biggest and strongest states), *the third world*.

O'quvchida haqiqiy taassurotni hosil qilish uchun sof uslubiy vositalardan foydalaniladi. Bunday vositalar o'quvchiga emotsional ta'sir o'tkazishdan tashqari, masalaga shaxsiy fikr bildirishning kuchli quroli hamdir: *So if the result of the visit is the burying of the **cold war**, the only **mourners** will be people like Adenauer and the arms manufactures who profit from it. The ordinary people will **dance on the grave*** (Daily Worker).

Ushbu misolda ishlatilgan metaforaning uslubiy vazifasi satirik xarakterga ega, ya'ni asl masalani satira orqali o'quvchiga yetkazish. Bunday ta'sirlar kinoya, ibora, allyuziya va hokazolar orqali ham berilishi mumkin. Tarixiy, adabiy, mifologik, diniy va maishiy yoki mashhur asarlardagi dalillarga tayanishni ifodalovchi uslubiy vosita, allyuziyaning ikki turi mavjud: 1) siyosiy va boshqa faktlarga asoslangan allyuziya. 2) tarixiy, adabiy va injil kitobidan olingan allyuziya, asosan satirik ta'sir o'tkazish uchun qo'llaniladi.

Now here there is a ripe thought: could George W. Bush have been British? I have never known this, but apparently when Texas was still independent and trying to join the United States on the 1840s, its president, Sam Houston, flirted with Britain (The Daily Telegraph).

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shu xulosaga kelishimiz mumkinki, ingliz ommaviy axborot vositalari tili qisqa, lo'nda va soda gaplar bilan yozilishiga qaramasdan uslubiy vositalarning keng qo'llanilishi hozirgi ingliz gazetalari uslubida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu esa axborot beruvchi vositalarning asosiy vazifasi faqat xabar tarqatishdan emas balki o'quvchi nigohini tortish hamda xabardagi voqeaga shaxsiy fikrni ifodlash vositasi ham bo'lib qolmoqda.

АДАБИЁТЛАР:

1. А.В. Федоров. Основы общей теории перевода. Москва, 1983. 236 с.
2. Д.В. Малявин, М.С.Латушкина. Работа с газетой на английском языке. Москва, 1988. 127 с.
3. Kenneth Morgan "The power to inform" England 1989. 96p.